



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



12-avgust
2026

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi

“MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENTNING ROLI”

Respublika ilmiy–amaliy konferensiya





IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 258 sahifa.
2026-yil, avgust*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.

KIRISH

EKOLOGIK QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA “YASHIL” TARAQQIYOT BORASIDAGI PARLAMENT NAZORATI



Xamzayev Abdushukur Xudoykulovich
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi
O‘zbekiston ekologik partiyasi fraksiyasining rahbari

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Jahonda kechayotgan iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv resurslari tanqisligi, yerlarning degradatsiyasi va atrof-muhit ifloslanishi kabi ekologik tahdidlar barcha davlatlar oldida umumiy vazifalarni qo‘ymoqda. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror rivojlanishning huquqiy asoslarini mustahkamlashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilashni taqozo etmoqda.

“Yashil” taraqqiyotni ta‘minlash zamon talablariga javob beradigan qonunchilik bazasini shakllantirish, uni muntazam takomillashtirib borish hamda qabul qilingan qonunlar ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini ta‘minlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan ekologik qonunchilik samaradorligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini hayotga keng joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning huquqiy poydevorini mustahkamlash hamda ularning ijrosini ta‘minlashda parlamentning o‘rni va mas‘uliyati tobora ortib bormoqda.

Ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” taraqqiyotga erishish har qanday davlatning puxta o‘ylangan huquqiy siyosatiga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda ekologik sohadagi qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Eng avvalo, 2023-yilda xalqimizning xohish-istaklari asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi muqaddimasidagi «mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga, hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib...» degan jumlar ham bu borada mamlakatimiz o‘zining aniq va mustahkam pozitsiyasiga ega ekanini anglatadi. Bundan tashqari, Bosh Qomusimizda ijtimoiy, iqtisodiy huquqlar qatori «ekologik huquq» tushunchasi kiritildi.

Xususan, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi, tabiiy boyliklarni asrab-avaylash hamda kelgusi avlodlar manfaatlarini ta‘minlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Keyingi yillarda o‘rmonlardan foydalanish, yaylovlarni muhofaza qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik audit, gidrometeorologiya, organik mahsulotlar ishlab chiqarish, ichimlik suvi ta‘minoti hamda suv resurslarini boshqarish sohalarida qabul qilingan qonunlar mazkur yo‘nalishda yaxlit huquqiy tizimni shakllantirishga xizmat qildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ekologik qonunchilikni takomillashtirishda quyidagi yo‘nalishlar ustuvorlik kasb etdi:

- birinchidan**, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash;
- ikkinchidan**, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va oldini olish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish;
- uchinchidan**, yerdan foydalanish va muhofaza qilish;
- to‘rtinchidan**, yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilish;
- beshinchidan**, suvdan foydalanish va muhofaza qilish;
- oltinchidan**, o‘simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish;
- yettinchidan**, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish;
- sakkizinchidan**, atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi;
- to‘qqizinchidan**, gidrometeorologiya sohasi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

2016–2025-yillarning o'zida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 30 ga yaqin qonun qabul qilinib, ular ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishning zamonaviy tizimini yaratish uchun poydevor bo'ldi.

Jumladan, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'rmon to'g'risida", "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risida", "Ekologik audit to'g'risida", "Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida", "Organik mahsulotlar to'g'risida", "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida", "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida", "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi yaxlit va yangi tahrirdagi qonunlar hamda Suv kodeksining qabul qilinishi mamlakatimizda ekologik siyosatning huquqiy asoslarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur qonunlar nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirdi, balki iqlim o'zgarishiga moslashish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, biologik xilma-xillikni asrash hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining huquqiy poydevorini mustahkamladi.

Bugungi kunda ekologik qonunchilikning asosiy vazifasi faqat tabiatni muhofaza qilish bilan cheklanmaydi. U investitsiya siyosatini shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish, "yashil" texnologiyalarni rag'batlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish hamda aholining munosib hayot sifatini ta'minlashning muhim huquqiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatimiz xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida bir qator xalqaro hujjatlarga qo'shildi.

Xususan:

Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a'zolarining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitish — "Hukumat soati";

davlat organlari rahbarlarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitish;

Qonunchilik palatasi tomonidan davlat organlarining mansabdor shaxslariga qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi masalalari yuzasidan parlament so'rovi yuborish;

Qonunchilik palatasining tegishli qo'mitasi tomonidan davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish;

qonun hujjatlarining ijrosi holatini va huquqni qo'llash amaliyotini tegishli qo'mita tomonidan o'rganish hamda qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish;

deputatlik so'rovlari yuborish va boshqa shakllarda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi va uning deputatlari ham mazkur jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

2025-yil davomida Ekologik partiya fraksiyasi tashabbusi bilan ekologik masalalar yuzasidan 2 marotaba hukumat a'zolarining axboroti eshitildi va davlat organlarining mansabdor shaxslariga 3 marotaba parlament so'rovi yuborildi.

Shu bilan birga, fraksiya yig'ilishlarida sohadagi qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi yuzasidan 13 marotaba tegishli mansabdor shaxslarning axborotlari eshitildi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Fraksiyamiz Qonunchilik palatasi deputatlari bilan hamkorlikda kelgusida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarni tizimlashtirish, qonunlarda huquqiy tartibga solish mexanizmlarini aniq belgilashga qaratilgan qonun loyihalari ustida ish olib bormoqda.

Jumladan:

ekologik qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya kodeksini maromiga yetkazish;

"Hayvonlarni shafqatsiz munosabatdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini;

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Chiqindilar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Atrof-muhit monitoringi to'g'risida"gi yangi qonun loyihasini ishlab chiqish oldimizda turgan ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki, Yangi O'zbekistonda ekologik qonunchilikni takomillashtirish va "yashil" taraqqiyotni ta'minlash jarayonida parlament nafaqat qonun qabul qiluvchi oliy vakillik organi, balki qabul qilingan qonunlarning hayotga to'liq va samarali tatbiq etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshiruvchi muhim konstitutsiyaviy institut sifatida ham alohida o'rin tutadi.

Ishonchim komilki, mazkur xalqaro konferensiya doirasida bildiriladigan ilmiy yondashuvlar, amaliy takliflar va ilg'or tajribalar ekologik qonunchilikni yanada takomillashtirish, o'zaro tajriba almashish hamda barqaror va "yashil" taraqqiyot maqsadlariga erishish yo'lida muhim muvaffaqiyat maydoni bo'lib xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat!



MUNDARIJA

AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIM, JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA SHAXSIY JAVOBGARLIK: 2025–2026-YILLARDAGI INSTITUTIONAL O'ZGARISHLAR TAHLILI.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	



AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIM, JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA SHAXSIY JAVOBGARLIK: 2025–2026-YILLARDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR TAHLILI



Sharipov Kongratbay Avezimbetovich
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri,
texnika fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Maqolada aholining ekologik madaniyatini yuksaltirishda ekologik ta'lim, jamoatchilik ishtiroki va shaxsiy javobgarlikning o'zaro bog'liqligi tadqiq etilgan. 2025–2026-yillarda O'zbekistonda ekologik ta'lim va targ'ibot sohasida yuz bergan institutsional o'zgarishlar — PQ-184-son qaror bilan tasdiqlangan Konsepsiya, Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasining tashkil etilishi hamda «Ekomadaniyat» umummilliy loyihasi doirasidagi PQ-110-son qaror — kompleks tahlil qilingan. Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida Konsepsiyada belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarning amaldagi ta'lim kontingentiga nisbati hisoblab chiqilgan. Tadqiqot natijasida «ekologik bilim — ishtirok — shaxsiy mas'uliyat — ekologik xulq-atvor» o'zaro bog'liqligiga asoslangan konseptual model taklif etilgan hamda oliy ta'lim tizimida ekologik kompetensiyalarni kuchaytirish bo'yicha sakkizta amaliy tavsiya ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, ekologik ta'lim, jamoatchilik ishtiroki, shaxsiy javobgarlik, ekologik xulq-atvor, barqaror rivojlanish, oliy ta'lim, yashil ta'lim, Green University, ekologik kompetensiya.

Аннотация. В статье исследуется взаимосвязь экологического образования, участия общественности и личной ответственности в повышении экологической культуры населения. Комплексно проанализированы институциональные изменения 2025–2026 годов: Концепция, утверждённая постановлением ПП-184, создание Национального комитета по экологии и изменению климата, а также постановление ПП-110 в рамках общенационального проекта «Экомаданият». На основе официальных данных Национального комитета по статистике рассчитано соотношение целевых показателей Концепции к фактическому контингенту обучающихся. Предложена концептуальная модель, основанная на связи «экологические знания — участие — личная ответственность — экологическое поведение», и разработаны восемь практических рекомендаций для системы высшего образования.

Ключевые слова: экологическая культура, экологическое образование, общественное участие, личная ответственность, экологическое поведение, устойчивое развитие, высшее образование, зелёное образование, экологическая компетенция.

Abstract. The article examines the interrelationship between environmental education, public participation and personal responsibility in improving the environmental culture of the population. It provides a comprehensive analysis of the institutional changes of 2025–2026 in Uzbekistan: the Concept approved by Resolution PP-184, the establishment of the National Committee for Ecology and Climate Change, and Resolution PP-110 adopted within the “Ekomadaniyat” national project. Drawing on official data of the National Statistics Committee, the study calculates the ratio of the Concept's target indicators to the actual student contingent. A conceptual model based on the chain “environmental knowledge — participation — personal responsibility — environmental behaviour” is proposed, together with eight practical recommendations for higher education.

Keywords: environmental culture, environmental education, public participation, personal responsibility, environmental behaviour, sustainable development, higher education, green education, environmental competence.



KIRISH

Iqlim o'zgarishi, havo va suv resurslarining ifloslanishi, chiqindilarni boshqarish, biologik xilma-xillikni asrash kabi masalalar global taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur muammolar yechimi faqat texnologiyalar yoki ma'muriy choralar bilan cheklanmaydi: ekologik barqarorlik jamiyat a'zolarining bilimi, qadriyatlar va kundalik xatti-harakatlari bilan bevosita bog'liq.

UNESCOning «Barqaror rivojlanish uchun ta'lim: yo'l xaritasi» hujjatida ta'lim insonlarni barqaror kelajak uchun zarur bilim, ko'nikma, qadriyat va munosabatlar bilan ta'minlovchi asosiy vosita sifatida e'tirof etilgan. Hujjatda beshta ustuvor yo'nalish belgilangan: davlat siyosati, ta'lim muhitini transformatsiya qilish, pedagoglar salohiyatini oshirish, yoshlar ishtiroki va mahalliy darajadagi harakatlar ¹.

O'zbekistonda mazkur yo'nalishdagi huquqiy-institutsional baza so'nggi o'n ikki oy ichida sezilarli o'zgardi. Tadqiqot uchun ahamiyatli uchta bosqichni ajratish mumkin.

Birinchi bosqich — strategik maqsadlarning belgilanishi. Prezidentning 2025-yil 15-maydagi PQ-184-son qarori bilan «2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi» tasdiqlandi; qaror 2025-yil 17-mayda kuchga kirdi. Konsepsiyaning asosiy maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodda ekologik bilim, ong va madaniyatni shakllantirish hamda aholining barcha qatlamlarida, jumladan, «yashil» iste'mol madaniyatini yuksaltirishdan iborat ².

Ikkinchi bosqich — boshqaruv tizimining qayta qurilishi. 2025-yil 18-noyabrdagi PQ-343-son qaror bilan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi negizida Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi tashkil etildi. Qo'mita Vazirlar Mahkamasi tizimidan chiqarilib, bevosita Prezidentga hisobot beradi; uning huzurida Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi (Ekopolitsiya), «Ekologik monitoring milliy markazi» hamda maqsadli davlat jamg'armasi faoliyat yuritadi. Shuningdek, 2026-yil 1-sentabrga qadar Yagona ekologik onlayn platformani ishga tushirish vazifasi belgilangan ³.

Uchinchi bosqich — ekologik ta'limning alohida vertikalga aylantirilishi. Prezidentning 2026-yil 25-martdagi PQ-110-son qarori (kuchga kirish sanasi — 2026-yil 30-mart) bilan «Ekomadaniyat» umummilliy loyihasi doirasida ekologik ta'lim, ilm-fan va targ'ibotni jadallashtirishga oid kompleks chora-tadbirlar tasdiqlandi ⁴.

Mazkur jarayonlarning ijtimoiy konteksti ham o'zgardi: 2026-yil mamlakatda «Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili» deb e'lon qilindi ⁵. Bu Konsepsiyaning mahalla darajasidagi vazifalarini amalga oshirish uchun qo'shimcha institutsional imkoniyat yaratadi.

Tadqiqotning **obyekti** — aholining ekologik madaniyatini shakllantirish va yuksaltirish jarayoni. **Predmeti** — ekologik ta'lim, jamoatchilik ishtiroki va shaxsiy javobgarlik o'rtasidagi ijtimoiy-pedagogik va institutsional munosabatlar. **Maqsadi** — ushbu uch elementning o'zaro bog'liqligini ilmiy asoslash hamda oliy ta'lim tizimi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

I. Ajzen tomonidan ishlab chiqilgan rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasiga ko'ra, insonning muayyan xatti-harakatni amalga oshirish niyati uch omil bilan belgilanadi: ushbu xatti-harakatga munosabat, subyektiv me'yorlar va idrok etilgan xulq nazorati ⁶. Ushbu nazariya ekologik bilimning o'zi mas'uliyatli xatti-harakatni avtomatik ravishda ta'minlamasligini tushunishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

P.C. Stern qadriyat–e'tiqod–norma (value–belief–norm) nazariyasi doirasida ekologik ahamiyatga ega inson xatti-harakatlariga qadriyatlar, e'tiqodlar, imkoniyatlar, kontekst va institutsional shart-sharoitlar kompleks ta'sir

1 UNESCO. Education for Sustainable Development: A Roadmap. — Paris: UNESCO, 2020. — 62 p.

2 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 15 майдаги ПҚ–184-сон “2030 йилгacha бўлган даврда аҳолининг экологик маданиятини юксалтириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. URL: <https://lex.uz/docs/-7528761>

3 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 18 ноябрдаги ПҚ–343-сон “Ўзбекистон Республикаси Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7847341>

4 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 25 мартдаги ПҚ–110-сон “«Эко-маданият» умуммиллий лойиҳаси доирасида экологик таълим, илм-фан ва тарғиботни жадаллаштиришга оид комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8100110>

5 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 16 февралдаги ПФ–22-сон “«Маҳаллани ривожлантириш ва жамиятни юксалтириш» йилида устувор йўналишлар бўйича ислохотлар дастурлари ва «Ўзбекистон–2030» стратегиясини амалга ошириш бўйича давлат дастури тўғрисида”ги Фармони. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8050787>

6 Ajzen I. The Theory of Planned Behavior // Organizational Behavior and Human Decision Processes. — 1991. — Vol. 50, No. 2. — P. 179–211. — DOI: 10.1016/0749-5978(91)90020-T.



ko'rsatishini asoslagan ⁷. Bu yondashuv ekologik mas'uliyatni faqat shaxsiy xohish bilan emas, institutsional muhit bilan birgalikda baholash zarurligini ko'rsatadi.

A. Kollmuss va J. Agyeman ekologik bilim va ekologik xulq-atvor o'rtasidagi tafovutni («knowledge–action gap») tahlil qilib, ekologik ong, qadriyatlar, hissiy omillar, tashqi sharoit va kundalik odatlarni asosiy ta'sir omillari sifatida ko'rsatganlar ⁸. Mualliflar bir necha o'nlab nazariy modellarni qiyoslab, ekologik xulq-atvorni yagona sxema orqali tushuntirib bo'lmashligi haqidagi xulosaga kelganlar.

O'zbekistonda ekologik madaniyatni shakllantirishda ta'limning o'rniga e'tibor kuchaymoqda.

M.O. Xoldarova bo'lajak muhandislarda ekologik madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslarini tadqiq etib, ekologik mas'uliyatni ta'lim-tarbiya jarayonining muhim natijasi sifatida baholaydi hamda ekologik tarbiyada tizimli yondashuv, fanlararo boyitish va talabalarni ekologik-pedagogik faoliyatga jalb etishni asosiy pedagogik shart deb ko'rsatadi ⁹.

D.Sh. Mirzayeva va D.M. Shamsiyeva ekologik madaniyatni shakllantirish usullarini oila → maktabgacha ta'lim → umumiy o'rta ta'lim → maxsus va oliy ta'lim → jamiyat ketma-ketligida bosqichma-bosqich tavsiflab, har bir bosqich uchun o'ziga xos pedagogik vazifalarni belgilaydilar ¹⁰.

F.O. Mamajonova ekologik madaniyatni **kognitiv, emotsional-aksiologik va amaliy-komportamental** komponentlarga ajratadi hamda ularning ta'lim jarayonida uyg'un rivojlanishi zarurligini asoslaydi; ekopedagogika, xizmatga yo'naltirilgan ta'lim (service learning), loyiha asosidagi o'qitish va raqamli vositalarni samarali metodik yondashuvlar sifatida tavsiya etadi ¹¹.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

Mavjud tadqiqotlar asosan ekologik ta'lim, ekologik ong yoki xulq-atvorning alohida jihatlarini o'rganishga qaratilgan. Ushbu maqolaning farqli jihati shundaki, masala **ekologik ta'lim — jamoatchilik ishtiroki — shaxsiy javobgarlik** bog'liqligi asosida, 2025–2026-yillarda shakllangan yangi institutsional konfiguratsiya kontekstida tahlil etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, ilmiy abstraksiya hamda statistik qiyosiy tahlil usullaridan kompleks foydalanildi. Tizimli yondashuv asosida ekologik ta'lim, jamoatchilik ishtiroki va shaxsiy javobgarlik ekologik madaniyatni shakllantiruvchi o'zaro bog'liq tarkibiy omillar sifatida o'rganildi. Kontent-tahlil usuli orqali PQ-184, PQ-343 va PQ-110-son qarorlarda belgilangan asosiy vazifalar, ularni amalga oshirish mexanizmlari hamda maqsadli ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Statistik qiyosiy tahlil O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ta'lim sohasiga oid rasmiy ma'lumotlari asosida amalga oshirilib, tegishli maqsadli ko'rsatkichlarning amaldagi ta'lim oluvchilar kontingentiga nisbati muallif tomonidan hisoblab chiqildi. Qiyosiy tahlil natijasida mavjud holat va istiqbolda erishilishi belgilangan ko'rsatkichlar o'rtasidagi tafovutlar aniqlanib, ekologik madaniyatni oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning qamrov darajasi baholandi. Ilmiy abstraksiya va umumlashtirish usullari yordamida olingan natijalar tizimlashtirildi hamda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonining o'zaro bog'liq bosqichlarini ifodalovchi “ekologik bilim → ekologik ong va qadriyat → jamoatchilik ishtiroki → shaxsiy javobgarlik → barqaror ekologik xulq-atvor → yuksak ekologik madaniyat” mantiqiy zanjiri taklif etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish bo'yicha 2030-yilgacha belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar ekologik ta'lim va tarbiya tizimini barcha bosqichlarda izchil rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur ko'rsatkichlar maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan ta'lim tizimini, shuningdek, davlat organlari, korxona va muassasalar xodimlarini qamrab olishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PQ-184-son qarorida 2030-yilga qadar erishilishi lozim bo'lgan asosiy

7 Stern P.C. New Environmental Theories: Toward a Coherent Theory of Environmentally Significant Behavior // Journal of Social Issues. — 2000. — Vol. 56, No. 3. — P. 407–424. — DOI: 10.1111/0022-4537.00175.

8 Kollmuss A., Agyeman J. Mind the Gap: Why Do People Act Environmentally and What Are the Barriers to Pro-Environmental Behavior? // Environmental Education Research. — 2002. — Vol. 8, No. 3. — P. 239–260. — DOI: 10.1080/13504620220145401.

9 Xoldarova M.O. Talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari // Цифровизация современного образования: проблема и решение. — 2023. — Vol. 1, No. 1. — B. 206–210. — DOI: 10.71337/inlibrary.uz.digitalization-modern-education.24693.

10 Mirzayeva D.Sh., Shamsiyeva D.M. Kichik maktab o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish // Modern Science and Research. — 2025. — Vol. 4, No. 1. — B. 251–256. — ISSN 2181-3906. — DOI: 10.71337/inlibrary.uz.science-research.63441.

11 Mamajonova F.O. Yosh avlodda ekologik madaniyatni shakllantirishda ta'lim tizimining roli // Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения. — 2025. — Vol. 4, No. 11. — B. 128–133. — ISSN 2181-2020. — DOI: 10.71337/inlibrary.uz.zdaf.130179.



natijaviy ko'rsatkichlar aniq belgilangan bo'lib, ular ekologik madaniyatni shakllantirish va yuksaltirish jarayonining miqyosi hamda ustuvor yo'nalishlarini ifodalaydi ¹².

1-jadval. PQ-184-son qarorda belgilangan 2030-yilgi maqsadli ko'rsatkichlar

№	Ko'rsatkich	2030-yilga maqsad
1	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ekologik madaniyatning shakllanishi	3,3 mln nafar
2	Umumiy o'rta ta'lim tizimi o'quvchilarida ekologik ta'lim-tarbiyaning mustahkamlanishi	4,2 mln nafar
3	O'rta maxsus va kasbiy ta'lim o'quvchilarida ekologik madaniyatning yuksalishi	400 ming nafar
4	Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarida ekologik madaniyatning yuksalishi	1,9 mln nafar
5	Davlat organlari, korxona va muassasalar xodimlarida ekologik madaniyatning yuksalishi	90 foiz

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PQ-184-son qarori, I bo'lim ¹³.

Jadval ma'lumotlari ekologik madaniyatni yuksaltirish bo'yicha belgilangan vazifalar faqat ta'lim tizimining muayyan bosqichi bilan chegaralanmaganini ko'rsatadi. Aksincha, ekologik ta'lim va tarbiya uzluksiz jarayon sifatida maktabgacha yoshdan boshlanib, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim bosqichlarida davom ettirilishi, shuningdek, mehnat faoliyati bilan band aholining ekologik madaniyatini oshirish bilan uyg'unlashtirilishi nazarda tutilgan. Ayniqsa, oliy ta'lim tashkilotlarida 1,9 mln nafar talabani ekologik madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan tadbirlar bilan qamrab olish maqsadining belgilanishi ushbu yo'nalishda oliy ta'lim tizimining strategik o'rnini ko'rsatadi. Davlat organlari, korxona va muassasalar xodimlarining 90 foizini tegishli chora-tadbirlar bilan qamrab olish vazifasi esa ekologik madaniyatni faqat ta'lim oluvchilar doirasida emas, balki jamiyatning iqtisodiy va boshqaruv faoliyatida ishtirok etuvchi qatlamlari orasida ham shakllantirishga alohida e'tibor qaratilayotganini anglatadi.

Qarorning 3-ilovasida ushbu maqsadli ko'rsatkichlarning yillar kesimidagi bosqichma-bosqich indikatorlari alohida belgilangan. Shu sababli keyingi tahlilda maqsadli natijalarning dinamikasini baholash zarur bo'lganda, oraliq yillarga tegishli ko'rsatkichlarni aynan mazkur ilova ma'lumotlari asosida qiyoslash maqsadga muvofiq.

Maqsadli ko'rsatkichlarni amaldagi ta'lim statistikasi bilan qiyoslash ularning real qamrov darajasi va amaliy mazmunini yanada aniqroq baholash imkonini beradi. Shu maqsadda umumiy o'rta va oliy ta'lim bosqichlari bo'yicha mavjud kontingent 2030-yil uchun belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar bilan solishtirildi.

2-jadval. Maqsadli ko'rsatkichlar va amaldagi kontingent nisbati

Ta'lim bosqichi	Amaldagi kontingent	2030-yilgi maqsad	Nisbat*
Umumiy o'rta ta'lim	6 776,3 ming nafar (2024/2025 o'quv yili boshiga)	4,2 mln nafar	≈62%
Oliy ta'lim	1 535,0 ming nafar (2025/2026 o'quv yili boshiga)	1,9 mln nafar	≈124%

Muallif hisob-kitobi. Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari ¹⁴.

Oliy ta'lim tizimidagi talabalar kontingenti so'nggi yillarda izchil o'sib bormoqda. Xususan, 2021/2022 o'quv yilida oliy ta'lim tashkilotlarida 808,4 ming nafar talaba tahsil olgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2023/2024 o'quv yilida 1 314,5 ming, 2024/2025 o'quv yilida 1 432,8 ming va 2025/2026 o'quv yilida 1 535,0 ming nafarga yetgan. Jami talabalar tarkibida 1 478,7 ming nafari bakalavriat, 56,3 ming nafari esa magistratura bosqichida

¹² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 15 майдаги ПҚ–184-сон “2030 йилгача бўлган даврда аҳолининг экологик маданиятини юксалтириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. URL: <https://lex.uz/docs/-7528761>

¹³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 15 майдаги ПҚ–184-сон “2030 йилгача бўлган даврда аҳолининг экологик маданиятини юксалтириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. URL: <https://lex.uz/docs/-7528761>

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni (2025/2026 o'quv yili boshiga). — Toshkent, 2026.; O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'quvchilari soni (2024/2025 o'quv yili boshiga). — Toshkent, 2025.



tahsil olmoqda. 2025/2026 o'quv yilida talabalar soni avvalgi o'quv yiliga nisbatan 102,2 ming nafarga yoki 7,1 foizga oshgan. Talabalarining 782,9 ming nafarini ayollar, 752,1 ming nafarini erkaklar tashkil etadi ¹⁵.

Mazkur dinamika 2030-yil uchun belgilangan 1,9 mln nafar talaba ko'rsatkichini alohida metodologik nuqtai nazardan talqin qilish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich hozirgi talabalar kontingentining muayyan qismini ekologik madaniyatni yuksaltirish tadbirlari bilan qamrab olishni emas, balki istiqbolda shakllanishi kutilayotgan oliy ta'lim kontingentining deyarli to'liq hajmini qamrab olishga yo'naltirilgan maqsad sifatida baholanishi mumkin. Hozirgi o'sish tendensiyalari davom etgan taqdirda, 2030-yilga borib oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalar soni mazkur darajaga yaqinlashishi ehtimoli yuqori. Shu sababli ekologik kompetensiyalarni faqat ekologiya va atrof-muhit bilan bevosita bog'liq ta'lim yo'nalishlari doirasida shakllantirish yetarli bo'lmaydi. Ularni iqtisodiyot, muhandislik, axborot texnologiyalari, tibbiyot, pedagogika, arxitektura, agrar soha, menejment va boshqa ta'lim yo'nalishlarining o'quv dasturlariga integratsiya qilish zarur.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida esa boshqa nisbat kuzatiladi. 2030-yil uchun belgilangan 4,2 mln nafar o'quvchini ekologik ta'lim-tarbiya bilan qamrab olish ko'rsatkichi 2024/2025 o'quv yili boshidagi 6 776,3 ming nafar umumiy o'quvchilar kontingentining qariyb 62 foiziga teng ¹⁶. Bu holat mazkur maqsadli ko'rsatkich umumiy o'rta ta'lim tizimidagi barcha o'quvchilarni bir vaqtning o'zida to'liq qamrab olishni emas, balki ma'lum bosqichlar, yosh guruhlar yoki belgilangan ta'lim-tarbiya mexanizmlari orqali bosqichma-bosqich qamrovni nazarda tutishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bois maqsadli ko'rsatkichlarning amaliy samaradorligini baholashda nafaqat qamrab olingan o'quvchilar soni, balki qaysi sinflar, qanday ta'lim dasturlari, metodik vositalar va amaliy ekologik faoliyat shakllari orqali ushbu qamrov ta'minlanayotganini ham hisobga olish muhimdir.

Jadval ma'lumotlari indikatorlarning aksariyati **qamrov** (nafar, foiz) ko'rsatkichi ekanini ko'rsatadi. Ajzen, Stern, Kollmuss va Agyeman tadqiqotlarida asoslanganidek, inson xulq-atvoriga bilimdan tashqari qadriyat, ijtimoiy norma, shaxsiy imkoniyat, odat va tashqi muhit ham ta'sir qiladi ¹⁷. Shu sababli «tadbir bilan qamrab olingan shaxslar soni» bilan «ekologik xulq-atvori o'zgargan shaxslar ulushi» bir xil narsa emas.

Bu — Konsepsiyani amalga oshirishdagi asosiy metodologik xavf: qamrov ko'rsatkichi rasman bajarilib, real xulq-atvor o'zgarmasligi mumkin. Shu bois natijaviy indikatorlarni (resurs tejash, chiqindi saralash, jamoatchilik eshituvlarida ishtirok) sotsiologik monitoring orqali o'lchash zarur.

PQ-343-son qaror bilan amalga oshirilgan islohot ekologik siyosat maqomini ko'tardi. Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasining bevosita Prezidentga hisobot berishi, Ekopolitsiya va «Ekologik monitoring milliy markazi»ning tashkil etilishi, maqsadli davlat jamg'armasining tuzilishi hamda 2026-yildan yuridik shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalarning joriy etilishi shundan dalolat beradi ¹⁸. 2026-yil 4-maydagi O'RQ-1143-son Qonun bilan esa ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik kuchaytirildi ¹⁹.

Tahliliy nuqtayi nazardan bu yerda ikki xil mexanizm to'qnash keladi. **Majburlov mexanizmi** (sanksiya, nazorat) qisqa muddatda samara beradi, lekin tashqi motivatsiyaga tayanadi. **Madaniyat mexanizmi** (bilim, qadriyat, odat) sekin shakllanadi, ammo barqaror. Stern ko'rsatganidek, ekologik ahamiyatga ega xulq-atvor institutsional shart-sharoitlar bilan chambarchas bog'liq ²⁰; ammo tashqi sanksiyalar ustun bo'lganda ichki motivatsiya susayishi mumkin. Shu sababli Ekopolitsiya faoliyati bilan ekologik ta'lim va targ'ibot dasturlari bir-birini to'ldiruvchi, ammo alohida baholanadigan yo'nalishlar sifatida olib borilishi maqsadga muvofiq.

Ayni paytda islohot jamoatchilik ishtiroki uchun real asos ham yaratdi: PQ-184ga muvofiq 2025-yil 1-dekabrda atrof tabiiy muhit davlat monitoringi ma'lumotlar bazalarining jamoatchilik uchun ochiqligi ta'minlanishi, «Yashil makon» loyihasi doirasidagi ko'chatlar, daraxt kesishga oid arizalar, jamoatchilik

15 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni (2025/2026 o'quv yili boshiga). — Toshkent, 2026.

16 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'quvchilari soni (2024/2025 o'quv yili boshiga). — Toshkent, 2025.

17 Ajzen I. The Theory of Planned Behavior // Organizational Behavior and Human Decision Processes. — 1991. — Vol. 50, No. 2. — P. 179–211. — DOI: 10.1016/0749-5978(91)90020-T.; Stern P.C. New Environmental Theories: Toward a Coherent Theory of Environmentally Significant Behavior // Journal of Social Issues. — 2000. — Vol. 56, No. 3. — P. 407–424. — DOI: 10.1111/0022-4537.00175.; Kollmuss A., Agyeman J. Mind the Gap: Why Do People Act Environmentally and What Are the Barriers to Pro-Environmental Behavior? // Environmental Education Research. — 2002. — Vol. 8, No. 3. — P. 239–260. — DOI: 10.1080/13504620220145401.

18 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 18 ноябрдаги ПҚ–343-сон “Ўзбекистон Республикаси Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7847341>

19 Ўзбекистон Республикасининг 2026 йил 4 майдаги ЎРҚ–1143-сон “Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва табиатдан фойдаланиш соҳасидаги ҳуқуқбузарликларни содир этганлик учун жавобгарлик кучайтирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида”ги Қонуни. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. URL: <https://lex.uz/docs/8169998>

20 Stern P.C. New Environmental Theories: Toward a Coherent Theory of Environmentally Significant Behavior // Journal of Social Issues. — 2000. — Vol. 56, No. 3. — P. 407–424. — DOI: 10.1111/0022-4537.00175.



eshituvlari natijalari va ekologik huquqbuzarliklar to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilinishi belgilangan ²¹. Bu Orxus konvensiyasi talablarining amaliy ifodasidir.

PQ-110-son qaror ekologik ta'limni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi ²²:

- 2026–2027-yillarda respublikaning har bir hududida **14 ta «yashil» texnikum** faoliyati yo'lga qo'yiladi; ta'lim muassasalari 2026/2027 o'quv yilidan boshlab «yashil» texnikumlarga aylantiriladi;

- 2030-yilgacha «yashil» texnikumlarda **10 ming nafar** o'rta bo'g'in kadri tayyorlanadi;

- 2026–2028-yillarda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi sohasida ilmiy daraja olganlar soni **150 nafarga** yetkaziladi;

- «yashil» texnikumlar ****Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University)****ga birlashtiriladi; ular uchun o'rmon xo'jaliklari, gidrometeorologiya stansiyalari va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda amaliy uchastkalar tashkil etiladi;

- «Science Oasis» tamoyili asosida bir qator oliy ta'lim tashkilotlarida yashil transformatsiya va iqlim o'zgarishlari bo'yicha kafedra yoki fakultetlar tashkil etiladi;

- yoshlarni rag'batlantirish uchun uch darajali **«Yosh ekolog» ko'krak nishoni** ta'sis etiladi (III daraja — maktab o'quvchilari, II daraja — texnikum o'quvchilari va talabalar, I daraja — tabiatni muhofaza qilish sohasida xalqaro va mahalliy darajada yuqori natijalarga erishgan yoshlar uchun);

- Green University va uning tizimidagi ilmiy tashkilotlar uchun 2026–2029-yillarga mo'ljallangan ilmiy tadqiqotlar dasturi tasdiqlangan.

Bu islohot muhim bo'shliqni — ekologiya sohasida ixtisoslashgan kadrlar va ilmiy salohiyat taqchilligini — to'ldiradi. Ayni vaqtda u **yangi xavf** ham tug'diradi: ekologik ta'lim alohida vertikalga ajratilganda, qolgan oliy ta'lim tashkilotlari «bu ish Green University'ning vazifasi» degan pozitsiyaga o'tishi mumkin. Vaholanki, PQ-184dagi 1,9 mln talaba ko'rsatkichi barcha oliy ta'lim tashkilotlarini qamrab oladi. Shu sababli ixtisoslashgan vertikal (Green University va «yashil» texnikumlar) hamda ommaviy integratsiya (barcha yo'nalishlarda ekologik kompetensiya) bir-birini istisno qilmasligi, balki parallel rivojlanishi lozim.

Ekologik ta'lim ekologik madaniyat shakllanishining birinchi bosqichi bo'lib, u insonga ekologik jarayonlar va inson faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini tushunish imkonini beradi. Biroq zamonaviy ekologik ta'limning maqsadi ma'lumot berishdan iborat bo'lmazligi kerak: natijada shaxsda ekologik muammoni aniqlash, uning sabab va oqibatlarini baholash, muqobillarni tahlil qilish va mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyasi shakllanishi lozim.

Shu jihatdan Mamajonova taklif etgan uch komponentli model — kognitiv, emotsional-aksiologik va amaliy-komportamental komponentlarning uyg'un rivojlanishi ²³ — amaliy ahamiyatga ega. Nazariy darslar bilan bir qatorda amaliy loyihalar, keyslar, ekologik startaplar, volontyorlik dasturlari va mahalliy ekologik muammolarni yechishga qaratilgan tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiq.

PQ-184ga muvofiq 2025/2026 o'quv yilidan boshlab ilmiy loyihalar tanlovida aholining ekologik madaniyatini yuksaltirishga oid mavzular har yili e'lon qilib borilishi hamda O'zbekiston ekovolontyor talabalari harakati tashkil etilishi belgilangan ²⁴ — bu mexanizmlardan amalda foydalanish darajasi alohida monitoringni talab qiladi.

Ekologik madaniyat individual bilimlar yig'indisi emas; uning ijtimoiy samarasi fuqarolarning atrof-muhit muhofazasiga oid jarayonlarda faol ishtirokida namoyon bo'ladi.

2026-yilning «Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili» deb belgilanishi ²⁵ Konsepsiyaning mahalla darajasidagi vazifalari uchun qulay imkoniyat yaratadi. PQ-184ga muvofiq har oyda «Mahallani chiqindidan xoli hududga aylantiramiz» shiori ostida aksiyalar, har yili esa «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida «Yangi daraxt — yangi nafas» respublika ekochempionati o'tkazilishi belgilangan ²⁶.

21 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 15 майдаги ПҚ–184-сон “2030 йилгача бўлган даврда аҳолининг экологик маданиятини юксалтириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. URL: <https://lex.uz/docs/-7528761>

22 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 25 мартдаги ПҚ–110-сон “«Эко-маданият» умуммиллий лойиҳаси доирасида экологик таълим, илм-фан ва тарғиботни жадаллаштиришга оид комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8100110>

23 Mamajonova F.O. Yosh avlodga ekologik madaniyatni shakllantirishda ta'lim tizimining roli // Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения. — 2025. — Vol. 4, No. 11. — B. 128–133. — ISSN 2181-2020. — DOI: 10.71337/inlibrary.uz.zdaf.130179.

24 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 15 майдаги ПҚ–184-сон “2030 йилгача бўлган даврда аҳолининг экологик маданиятини юксалтириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. URL: <https://lex.uz/docs/-7528761>

25 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 16 февралдаги ПФ–22-сон “«Маҳаллани ривожлантириш ва жамиятни юксалтириш» йилида устувор йўналишлар бўйича ислохотлар дастурлари ва «Ўзбекистон–2030» стратегиясини амалга ошириш бўйича давлат дастури тўғрисида”ги Фармони. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8050787>

26 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 15 майдаги ПҚ–184-сон “2030 йилгача бўлган даврда аҳолининг экологик маданиятини юксалтириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. URL: <https://lex.uz/docs/-7528761>



Shu bilan birga, jamoatchilik ishtiroki aksiyalar bilan cheklanmasligi lozim. Fuqarolar ekologik axborot olish, mahalliy muammolarni muhokama qilish, tashabbus kiritish va jamoatchilik nazoratida qatnashish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Yagona ekologik onlayn platformaning ishga tushishi ²⁷ ushbu ishtirokni raqamli shaklda institutsionallashtirish imkonini beradi.

Oliy ta'lim muassasalari esa mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda talabalarni real ekologik muammolarni hal etishga jalb etuvchi ijtimoiy loyihalarni yo'lga

Ekologik madaniyatning yakuniy ko'rinishi insonning kundalik tanlovlarida namoyon bo'ladi: suv va elektr energiyasini tejash, chiqindilarni kamaytirish va saralash, ortiqcha iste'moldan voz kechish, yashil hududlarni asrash, jamoat transportidan foydalanish.

Shaxsiy javobgarlikni uchta element orqali baholash maqsadga muvofiq:

- **birinchidan**, shaxsning o'z harakatining ekologik oqibatlarini anglashi;
- **ikkinchidan**, ekologik jihatdan maqbul qarorni ixtiyoriy ravishda qabul qilishi;
- **uchinchidan**, ushbu xatti-harakatni muntazam odatga aylantirishi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi konseptual model taklif etiladi:

BILIM → ANGLASH → ISHTIROK → SHAXSIY MAS'ULIYAT → ODAT → EKOLOGIK MADANIYAT.

Mazkur yondashuvning ilmiy yangiligi ekologik ta'lim natijasini faqat bilim ko'rsatkichi orqali emas, balki jamoatchilik ishtiroki va shaxsiy ekologik xulq-atvoriga o'tish bosqichlari bilan o'zaro bog'liq holda baholashni taklif etishdan iborat.

Oliy ta'lim tashkiloti bu jarayonda faqat bilim beruvchi institut emas, balki ekologik xulq-atvorning amaliy modeliga aylanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan «yashil kampus» yondashuvi — energiya va suv resurslarini tejash, chiqindilarni saralash, talabalarining ekologik loyihalari va ekovolontyorlik — muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Birinchidan, ekologik madaniyat ekologik bilimlarning oddiy yig'indisi emas, balki ekologik ong, qadriyatlar, ijtimoiy ishtirok, shaxsiy javobgarlik va kundalik xulq-atvorni birlashtiruvchi kompleks ijtimoiy-pedagogik kategoriyadir.

Ikkinchidan, 2025–2026-yillarda O'zbekistonda ekologik ta'lim va targ'ibot sohasida uch bosqichli institutsional transformatsiya amalga oshirildi: strategik maqsadlarning belgilanishi (PQ-184), boshqaruv tizimining qayta qurilishi (PQ-343) va ekologik ta'lim vertikalining yaratilishi (PQ-110). Bu sohaning siyosiy ustuvorlik darajasi keskin oshganini ko'rsatadi.

Uchinchidan, oliy ta'lim bo'yicha 1,9 mln nafar talaba ko'rsatkichi 2030-yilga borib shakllanadigan kontingentning deyarli to'liq hajmini anglatadi. Demak, ekologik kompetensiyalar barcha ta'lim yo'nalishlariga integratsiya qilinmasa, mazkur ko'rsatkichga erishish mumkin emas.

To'rtinchidan, Konsepsiyaning mahalliy ko'rsatkichlari asosan qamrov indikatorlaridan iborat. Bilim va qamrov real xulq-atvorni kafolatlamasligi ilmiy adabiyotlarda asoslangan ²⁸; shu bois natijaviy indikatorlar tizimini joriy etish zarur.

Beshinchidan, nazorat-sanksiya mexanizmi va madaniyat-ta'lim mexanizmi bir-birini to'ldirishi, ammo birinchisi ikkinchisining o'rnini bosmasligi lozim.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Oliy ta'limning barcha yo'nalishlarida kasbiy faoliyatning ekologik va barqaror rivojlanish jihatlarini qamrab oluvchi kompetensiyalar tizimini shakllantirish va uni malaka talablarida mustahkamlash.

2. Green University hamda «yashil» texnikumlar bilan boshqa oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida metodik hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish; ixtisoslashgan vertikal ommaviy integratsiyaning o'rnini bosmasligini ta'minlash.

3. «Science Oasis» tamoyili asosida tashkil etilayotgan kafedra va fakultetlar negizida hududiy ekologik muammolarga yo'naltirilgan amaliy tadqiqot dasturlarini shakllantirish.

4. Oliy ta'lim tashkilotlarida «yashil kampus» tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etib, energiya, suv, chiqindilar va yashil hududlar bo'yicha aniq indikatorlar asosida monitoring tizimini tashkil qilish.

5. Ekologik ta'lim natijalarini baholashda bilim bilan birga talabalarining ekologik xulq-atvori, loyihalardagi ishtiroki va amaliy kompetensiyalarini aks ettiruvchi mezonlarni joriy etish.

27 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 18 ноябрдаги ПҚ–343-сон “Ўзбекистон Республикаси Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7847341>

28 Ajzen I. The Theory of Planned Behavior // Organizational Behavior and Human Decision Processes. — 1991. — Vol. 50, No. 2. — P. 179–211. — DOI: 10.1016/0749-5978(91)90020-T.; Stern P.C. New Environmental Theories: Toward a Coherent Theory of Environmentally Significant Behavior // Journal of Social Issues. — 2000. — Vol. 56, No. 3. — P. 407–424. — DOI: 10.1111/0022-4537.00175.; Kollmuss A., Agyeman J. Mind the Gap: Why Do People Act Environmentally and What Are the Barriers to Pro-Environmental Behavior? // Environmental Education Research. — 2002. — Vol. 8, No. 3. — P. 239–260. — DOI: 10.1080/13504620220145401.



6. Yagona ekologik onlayn platforma va ochiq monitoring ma'lumotlari bazasidan talabalarning o'quv-tadqiqot faoliyatida manba sifatida foydalanishni yo'lga qo'yish — bu jamoatchilik nazorati ko'nikmasini amalda shakllantiradi.

7. 2026-yil — «Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili» doirasida oliy ta'lim tashkilotlari va mahallalar o'rtasida doimiy ekologik hamkorlik platformalarini tashkil etish.

8. Ekologik madaniyatni monitoring qilishda o'tkazilgan tadbirlar soni emas, balki aholining ekologik bilimi, ishtirok darajasi va real xulq-atvoridagi o'zgarishlarni ifodalovchi natijaviy indikatorlardan foydalanish; buning uchun muntazam sotsiologik so'rovlar metodikasini ishlab chiqish.

Umuman olganda, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirishni **«davlat — ta'lim — ilm-fan — oila — mahalla — jamoatchilik — shaxs»** hamkorligiga asoslangan uzluksiz jarayon sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq. Ekologik bilim shaxsiy mas'uliyatga, shaxsiy mas'uliyat esa kundalik ekologik xulq-atvorga aylangandagina ekologik ta'limning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri barqaror natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PQ-184-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-7528761>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-son "O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/4354743>
3. UNESCO. *Education for Sustainable Development: A Roadmap*. — Paris: UNESCO, 2020. — 62 p.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi PQ-343-son "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7847341>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-martdagi PQ-110-son ««Eko-madaniyat» umummilliy loyihasi doirasida ekologik ta'lim, ilm-fan va targ'ibotni jadallashtirishga oid kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8100110>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son ««Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish» yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va «O'zbekiston–2030» strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8050787>
7. Ajzen I. The Theory of Planned Behavior // *Organizational Behavior and Human Decision Processes*. — 1991. — Vol. 50, No. 2. — P. 179–211. — DOI: 10.1016/0749-5978(91)90020-T.
8. Stern P.C. New Environmental Theories: Toward a Coherent Theory of Environmentally Significant Behavior // *Journal of Social Issues*. — 2000. — Vol. 56, No. 3. — P. 407–424. — DOI: 10.1111/0022-4537.00175.
9. Kollmuss A., Agyeman J. Mind the Gap: Why Do People Act Environmentally and What Are the Barriers to Pro-Environmental Behavior? // *Environmental Education Research*. — 2002. — Vol. 8, No. 3. — P. 239–260. — DOI: 10.1080/13504620220145401.
10. Xoldarova M.O. Talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari // *Цифровизация современного образования: проблема и решение*. — 2023. — Vol. 1, No. 1. — B. 206–210. — DOI: 10.71337/inlibrary.uz.digitalization-modern-education.24693.
11. Mirzayeva D.Sh., Shamsiyeva D.M. Kichik maktab o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish // *Modern Science and Research*. — 2025. — Vol. 4, No. 1. — B. 251–256. — ISSN 2181-3906. — DOI: 10.71337/inlibrary.uz.science-research.63441.
12. Mamajonova F.O. Yosh avlodda ekologik madaniyatni shakllantirishda ta'lim tizimining roli // *Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения*. — 2025. — Vol. 4, No. 11. — B. 128–133. — ISSN 2181-2020. — DOI: 10.71337/inlibrary.uz.zdaf.130179.
13. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni (2025/2026 o'quv yili boshiga). — Toshkent, 2026.
14. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'quvchilari soni (2024/2025 o'quv yili boshiga). — Toshkent, 2025.
15. O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 4-maydagi O'RQ-1143-son "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonuni. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/8169998>



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Maqsudov Hasan

2026. № 4-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

